



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-61-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budgetining erkin qoldiq manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budget Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘sishimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishi qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining VII-chaqiriq, to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari hamda 2025-yil 10-apreldagi tuman mahalliy byudjetining qo‘sishimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 3-sonli bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **736,0 (Yetti yuz o‘ttiz olti) mln.** so‘m mablag‘ 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlari ushbu ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish va bajarilgan ishlар bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budgetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budget mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rribosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
 2025-yil 29-apreldagi
 VII-9-61-7-96-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida
 MA’LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag‘ miqdori (mln. so‘m)	Asos
		Jami:	736,0	(Yetti yuz o‘ttiz olti million)
1	Tuman hokimligiga	Uyali terminal qurilmalari orqali naqd pulda to‘lovlarini qabul qilish maqsadida aylanma mablag‘ uchun	100,0	Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligining 2025-yil 5-apreldagi 38/11-169-sonli topshirig‘i va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 8-apreldagi 02/02-38-208-sonli xatlari
		“Yangiyo‘rg‘oncha” MFYda ishlamay turgan suv minorasini ta’mirlash va 200 metr suv tarmog‘ini tortish ishlari uchun	254,8	
2	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli favvora va favvora atrofidagi bruschatka hamda tungi yoritgichlarni ta’mirlash uchun	51,2	
3	Tuman Tibbiyot birlashmasiga	Tibbiyot birlashmasiga qarashli Qiyot MFY Yangiravot qishlog‘ida joylashgan mahalla tibbiyot qurilish va ta’mirlash ishlari yakunlash uchun	150,0	Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligining 2025-yil 4-apreldagi 05-01/362-sonli topshirig‘i va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 7-apreldagi 02/02-38-197-sonli xatlari

4	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	“Qirg‘iz” MFYda joylashgan 20-maktabning sport zal binosini tom qismini ta'mirlash maqsadida qurilish materiallari sotib olish uchun	180,0	Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligining 2025-yil 10- apreldagi 38/17-43-sonli topshirig‘i va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 10-apreldagi 02/02-38-217-sonli xatlari
---	--	--	-------	---